

BIRINCHI KITOBIM



SHE'RLAR

# KABISA

8.21.  
M-92.

FERUZ NE'MATULLAYEV

8.2  
N-92

Книга должна быть  
возвращена не позже  
указанного здесь срока

Количество предыдущих  
выдач \_\_\_\_\_

1164  
1165

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
"TJOD" JAMOAT FONDI


FERUZ NE'MATULLAYEV

SHABISA

She'rlar

- 1146 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
1-FILIALI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT  
"ADABIYOT"  
2020

Bir umr og'riydi  
Og'riq sezganlar.

O'lindan qo'rqqanlar  
O'tar umrbod...

Federiko Garsia LORKA

## YO'L JUDA UZUN

Ko'plab iste'dodli tengdoshlari ichida ajarilib tur-gan, o'z so'zini aytishga intlayotgan yosh shoir Feruz Ne'matullayevning yangicha nigohi, botin ifodasi, yoniq bir ovozi tibi nozik she'rxonni-da befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz.

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
tomonidan nashriga tasvsiya qilinib, "Ijod" jamoat fonda  
tomonidan moliyalashtirilgan.*

Bu kabir va sag'ir borliqda o'zini va o'zgani anglash ham hammaga nasib etavermaydi. Anglaganlarining hammasini emas, eng muhimmi, eng go'zali, eng umidbaxshini anglatish esa iste'dod. Zero, bunga ma'no olamida ehtiyoj bor. Bu ehtiyojdan, tashnalikdan adabiyot, uning yombi, eng ta'sirchan janri she'riyat ko'z ochgan, mumtoz va samimiy do'stga, hamnafasga aylangan. Davomiy sirortidagi dunyoning qay bir parchasini yangicha ayon aylash uchun esa yangi ovozlar kerakdir. Shundan adabiyot yangilanib, o'quvchi qalbini ziynatlab boraveradi.

Shunday ulug' bir yo'nga chiqayotgan yosh shoir Feruz Ne'matullayevning ilk kitobi – "Kabisa"da (nom ham nodirlikka ishora), dunyoni ichkin ko'rishga bo'lgan samimiy harakatda o'ziga xos nigoh, tasavvur va ifodaning bo'rtib turganligi avvalo e'tiborimni tortdi. Rost, bu o'ziga xoslik ortida yosh ijod-

Nashr uchun mas'ul:

**Jo'rabek JAHON**

Mas'ul muharrir:

**Vafо FAVZULLOH**

ISBN 978-9942 57774-1-3

© F. Ne'matullayev, 2020  
© "Adabiyot", 2020

korning mumtoz va zamonaivy she'riyatning eng yaxshi namunalariga havasmand ekani, mutolaaga astoydil berilgani ham sezildi. Biroq Feruz o'zi ma'nan yashagan olamning murakkab taloto'plariga o'zidan ifoda, ohang, tashbeh topishga urinayotgani ham ayni haqiqat. Bu jarayonda uning izlanish va muvaffaqiyatlari, hatto kurashdagi mag'lubiyattari borasida nimadir deyishiga hozir imkonimiz bo'limasa-da, uning she'rлaridagi bir unsurni muxtasargina ta'kidlashni istar edim. Bu Feruz she'riy va'dasining samimiyligi, o'ziga ishonchi, hayot kabi qonuniy haqiqatning fojaviy tomonlarini-da ifodalashga bo'lgan jur'ati, she'riyatning ulug' amali o'quvchi ko'nglini yorug'likka toplashi, kechinmaning betakrorligini ozmi-ko'pmi kashf qilgani, ak-siomalarining ortiga ham nazar tashlashi so'z yo'lining ma'no-mohiyatini anglaganidan, shunga yarasha iqtidori borligidan darakdir. So'zimiz quruq bo'masligi uchun uning ikki-uch misrasini keltiramiz. U yozadi: "Axir, biz ham ulkan daraxtmiz" yoki "Yo'l juda uzun". Bular ijodkor siymosiga o'ziga xos tashbehli chizgi va ko'zgu emasmi?! Uning xuddi shunday "So'zlarim alomat, so'zlarim chaqin" e'tirofini shoirning maslagi va shoirga qo'yilgan talab o'mida ham qabul qilish

mumkin. Yoki mana bu misralarni ramziy ma'noda tashunganimizdan keyin shuurimiz ranginlashib ketadi: "Tong har safar soladi yodga, Unut bo'llib ketgan hayotni". Ferruzning ana shu hayot murakkabliklarini muhrlashga urinishiga esa ezgu, insoniyat tashna haqiqatni ko'rsatishga e'tiqodi, badiiyatning muqaddasligini shu belgilaydi, deb bilishi uning kelgusiga-da katta umid uyg'otadi. "Dard - daraxt ilohiy..." yoki "Men istayman haqiqatni(ng)... tirilishini"(!) kabi satrلari ijodkorning asl vazifasini esga soladi. Shunday ajib va'da, go'zal jymon, hayot kabi tap-tortmas haqiqatni sevib, e'tiqod kabi so'zga sodiqlik talab qiladigan qismatga yuzma-yuz bo'layotgan Feruz Ne'matulloha, she'ri yuskak va hosildor daraxt, so'zi asrlarni oralab o'tadigan uzun yo'l bo'lishini, ovozidagi charqin haqiqatning chehrasini to'laqonli yoritishini, faqat va faqat hayotning chin dramatisini o'quvchiga taqdim qilishini tilayman. Bu qismat yo'ldir, Feruzjon! U faqat mardonalarini siyaydi.

**Vafо FAYZULLOH,**  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,  
shoir

\*\*\*

Kiravering, deraza ochiq.  
Soatning murvati to'xtadi.  
Ko'kragimda yuragim sanchib  
Urardi - bu so'nggi qadam.

O'yylanmang, izlanmang, kerakmas,  
Basirharday nur tering tundan.  
Harakatga o'rghaning besas,  
Jimlik zulmat aro uchqundir.

Rasm soling.  
Yurak soling suratga.  
Bir his soling -  
Qaroqlardan tomchilasin yosh.  
To'rt devor oralig'ida o't olsin yurak -  
Vatan -  
Quyoshi!  
Razm soling...

\*\*\*

Kaftingizni quyoshda yoqing,  
Aybingizni tozalang suvda.  
Tiyonshon - bu mag'rurlik tog'i,  
Ildizida dard bor, bordir g'am.

Ketar ekan oftob narilab,  
Sox-shabbalar - tutashmagan qo'l.  
Buyuk kelajakning qa'ridan  
Yonayotgan - biz yurmagan yo'l.

Tiriklikning poyi - aylana,  
Kirdim, tanbaladim eshikni.  
Derazzadan kiraveringlar,  
Yashamoqqa biroz kechikdim.

Shamol kelar yetaklab vaqtini,  
O'tmishtidan nolimaydi waqt.  
Axir, biz ham ulkan daraxtmiz,  
Mevalari talangan daraxt.

\*\*\*

O, naqadar maftun etar o'ziga  
Tun, quyuuq tuman.  
So'nggi bora porlar ko'zimda  
Qachonlardir so'ngan sham.

Xayolotga cho'kib bordim – tor yo'lak,  
Yo'l juda uzun.  
Evoh! Tuman aro yashhasam kerak  
Yolg'iz bir o'zim.

\*\*\*

Siniq derazadan boqadi olam,  
Siniq derazadan cho'kib kelar tun.  
So'niq ko'zlarimda balqiydi jola,  
Siniqlik ortida cheksiz ERK tutqun.

Osmon ko'rindi dengiz aksida,  
Tazallum qa'ridan taralar sado:  
"Dunyo haqiqatning boshini egar",  
Tiriklik – arosat, yashamoq – azob!.."

Quyosh kuyib bitdi. Oy so'nar, xasta  
Nur tomar tarnovning labidan chak-chak.  
Yovuzlik ko'rpasin to'shaydi asta  
Tunda yaratilgan beshafqat ertak.

\*\*\*

Sobit tog'lar sadosi... Aks-sado...  
Osmon bag'ri nechuk qon rangda?  
Bu Tangridan berilmish jazo –  
Xanjar ko'kni yaralar jangda.

Termulingiz xayolchan, ko'kka –  
Qon – sharobdan to'lib borar jom.  
Yorab! Kunduz hayoti to'xtab,  
Quylidi yer uzra oqshom.

\*\*\*

Kunlarim, beshafqat kunlarim  
O'tarlar, ketarlar qoshimdan.  
O'yimni yemirgan o'ylarni  
O'tkazib yubordim boshimdan.

O'tmishni qoldirib ortida  
Tobora ruhimidan uzoqlar.  
Tur mushning qaysi bir qatida  
Manglayni silaydi tuzoqlar.

Tinglanar shaharning sokin alhoni,  
Bir lahma sukunat,  
O'yimiz o'rasha hislar quyuni.  
Osmon chiroqlari ohista yonar,  
Ko'zingda bir lahma yonadi tunlar.

Alamlar sochimga o'rmalar,

Shamollar ko'ksimi tirmaydir,  
Yelkamdan ko'tarar qarg'alar,  
Ko'zimda uyqusiz tun daydir.

Termulsam, ijozat etsang, seviklim,  
Dunyoni unutsam,  
Dunyodan tonsam,  
Sen bilan o'tkazsam so'nggi tunimni.

Nafasim kuydirar yuzing bolishda,  
So'zlarim alomat,  
So'zlarim - chaqin.  
Sen mendan tobora yana olisda,  
Tobora men senga yana-da yaqin.

Qalitroq qo'llarim yer timdar,  
Isyonkor yuragim olishar.  
Bilaman, qachondir ortimdan  
Kunlarim qo'l silkib qolishar...

\*\*\*

### MANFRED

Yomg'ir yog'ar, malla sochim ho'l,  
Osmon tengsiz, men kabi yolg'iz.  
Yomg'ir yog'ar, odil hakam yo'l –  
Ikki ayro loy kechilgan iz.

Yomg'ir yog'ar, yurak yer timdar,  
Iblis kelib cho'kar qoshimga.  
Yomg'ir yog'ar, jami g'alvalar  
Yog'iladir mening boshimga.

\*\*\*

Olis-olislarga boqqanda odam,  
Ko'zları qamashar quyosh nuridan.  
Axir, u kechilgan kundan muttaham,  
Muttaham kechilgan uzoq umridan.  
  
Yoqilgan o'tmishda kullar uyumi,  
Qaroqlar namlanar, uyilar qoshlar.  
Allohim, berkitma umr uyini,  
Mening ham haqqim bor uzoq yashashga.

Tun o'qi yog'ilar birma-bir,  
Kunma-kun yiroqdir manzillar.  
Sen olis... Men olis... Bad taqdir  
Tunlarga tinglatdi arzimni.

Yashamak mushkul ish, tiriklik  
Naqadar achchiq va azobli.  
Sen - shamol. Men - shamol.  
Shamol - ERK...  
Rutubat madhidek hayotim.

Yashadim - isyonni qo'zg'adim,  
Izmimni topshirdim o'zlikka.  
So'zlarim yulduzdek sochilib  
Yondirdi. Chatnadi muzliklar.  
  
Astarta\*, bul yorug' jahonda  
Haqiqat - nur kabi to'larman.  
Bandaman, o'lsam-da qachondir  
Zulmatni pichoqlab o'larman.

\*J. Bayron asari qahramoni.

\*\*\*

Janub sari uchar turnalar,  
Yo'qlik ila chekinar uzlat.  
Sharpalar sas chiqargan onda,  
Vatanim, deb akillar itlar.

Kezinadi bir un darbadar,  
Poyoni yo'q dala bag'rida:  
"Nahot his qilmaydi turnalar  
Itlar tuygan og'riqlarini..."

Cheksizlikka yetgan chog'larda  
Samo sathi cho'kar tuproqqa.  
Buyuklik – qad tutgan tog'larda  
Ko'kka yetaklagay so'qmoqlar.

Oxirini topganda safar,  
Yo'llar yurtdan ketmasa nari.  
Ajabmas, kun kelib turnalar  
Akillas a itlar singari.

\*\*\*

Boshlanar sukunat sadosi,  
Zamharir go'zallik xudosi –  
Qor yog'ar...

Bo'g'ilgan kunlarim tun kabi,  
Bo'g'zimda yorilgan un kabi –  
Qor yog'ar...

Jar solar o'liklar burg'usi,  
Men qadar ul marhum bo'lg'usi,  
Qor yog'ar...

Muzlagan nafosat kaftimda,  
Hali ham hayotman, aftidan,  
Qor yog'ar...

## TUSHUNCHА

\*\*\*

Urush – minilmagan otar dukuri,  
Bunda kunlar qora, oydin tunlari.

Har on o'taverar o'qlar yugurib,  
Och qolgan, madorsiz dushmanlar sari.

Yengilar elakda elangan qo'shin,  
Qo'rquv kallaklaydi barmoqlarini.  
Qontalash bag'riga qurolin quchib,  
Jon berar yurtidan ancha narida.

Urush – kipriklarni sindirib qaytgan  
Achchiq – ko'zlardagi beun noladir.  
Urush – Vatan so'zin qaltilab aytgan  
Otasisz, onasiz yetim boladir.

Yurish, yurish kerak, kutadir manzil –  
Chechakka burkanib tinchlik degan tush.  
Urush – hayot darsi, urush bu, axir,  
Nomarddan mardlarga qilingan yurish.

Tuman og'ushida nam olar tuproq,  
Tinglanar jumlilikning jarangdor ohi.  
Bunda hayot yonar, kun yonar uzoq  
Tashvishlar – turmushning achchiq dargohi.

Chorlar poyonotning bag'rida firoq,  
Sevinch qurshovida yosh olar ko'zlar.  
Shoir ketib borar yiroqdan yiroq,  
Qachondir yo'qotgan baxtini izlab.

Sardor Salimovga



\*\*\*

Sharpalarning qadamlarida  
Anglanilmas shovqin tinglandi.  
Cho'kayotgan men emas edim,  
Cho'kayotgan edi kimlardir.

Marhumotning o'zidek yakka  
Hayot kechilardi uyquda.  
Egasi yo'q taxt deb falaklab  
Cho'kayotgan edi tuyg'ular.

Yulduzlearning shiviri tindi,  
Tindi oyning sirli unlari.  
Samo tengi ulkan kemada  
Cho'kayotgan edi kunlarim.

Yuragingga boqdim ko'zingdan.  
Ko'rdim  
Uning go'zal ekanin.  
Yaralmish ruhing  
Yurak so'zidan.  
Ko'rdim:  
Tub-tubida yashirin sirlar.  
Mag'rurlikdan yaralgan qafasni  
Ko'rdim.  
Olam-olam asirlar  
Kutmoqda  
Yurak tomon tashlangan qadamni.  
Ko'zlaringga boqib,  
Bildimki,  
Ko'zlarining chorlaydi odamni.  
Yo'q.  
Seni sevmayman!  
Ko'zlaringga boqdim.  
Vassalom.

Yig'layotgan men emas edim...

\* \* \*

Trubka. Qo'ng'iroq. Jarangdor tovush.  
Muhabbat lovullar... So'ng bor yonar sham...  
Balki yaxshiroqdir, balki, ajralish  
Hayotga o'rgatar ikkimizni ham.

Yaproqlar sochlarni sarg'aytar sarxush,  
O'ylovlar o'ylovda, qaroqlarda nam.  
Har yon sukunatdir, har yonda qor-qish.  
Sen ketib borarsan mag'rur boshing xam.

Ikki dil ikki yon, oh, qandayin kun,  
Sabablar yog'ililar ketmoqlik uchun.  
Yalang'och ruhimdan uzoqlama hech.  
Qanchalar mag'rursan, qanchalar yupun...

Tinglanar sensizlik kuyulari bu tun,  
Ketma, demoqlikkha endi juda kech.

\* \* \*

O'zingni qiynama suratim quchib,  
Bo'rondek tebranar ko'zlariningda yosh.  
Sovuq, izg'irinda shamoldek uchib,  
Yanada uzoqroq ketardi izvosh.

Dalaga quloq il, kuylar tabiat.  
Yana ko'rishgaymiz, ko'z yoshlari nechun?  
Muhabbat - ehtiros, ehtiros - uyat,  
Qachondir qaytarman uyalish uchun!

Bahor kunlarini, seni sog'inib,  
O'tgan yillar kuyin dilga o'yaman.  
Xira tortmasin deb takror, har kuni  
Surating ostiga chiroq qo'yaman.

Qara, ostonada muzladi izim,  
Atrofni o'ragan kumush qish misol.  
Oxir maysalsarga aylandin o'zim,  
Qara, yuragimda erib oqar qor.

\*\*\*

Quyoshni izladim...  
Yechim degan so'z  
Ho'ngrab kelayoutir sukut qa'ridan.  
To'kilgan so'zlarim,  
Endi birmamiz –  
Ko'zim ikki qadam narida.

Yo'lga chiqmang. Yo'llar qorong'u...  
Yurak hadiksiragay tundan,  
Soching ko'kdan achchiq ko'zyoshni.  
Nashidaning baxtiga og'ib,  
Qurolidan ayro uchqurilar  
Izlagancha ketdi quyoshni.

Nob nafasdan ungan  
Yellar yotsirab  
Xazonlar tilida urayotir do'q.  
Nahot, quyosh urgan  
Osmon ostida  
Ko'z tinglagan biror kimsa yo'q.

Yo'lga chiqmang. Yo'llar xatarli...  
To'rt tarafda – to'rt taxt – taloto'p,  
Tuproqqa teng kelar qoyalar.  
Yo'l boshlagan yuz dumli g'ardek  
Tutun karvon tortar falakka,  
Dengiz kabi oqar soyalar.

Til bilmagan dardni  
Og'iz – tuyrukdan  
Tahammul qoniga cho'ktiradi suv.  
Nima ham qillardim,  
Yurak ko'nikkan,  
Ko'nikmaga aylangan qo'rquv.

Yo'lga chiqmang. Yo'llar notekeis...  
O'pkalarda qo'rg'oshin – nafas,  
Poy ostida yillar toshlari.  
Yo'qolmagay tiriklik beiz,  
Yo'llardagi bu – toshlar emas,  
Ulug' jangchilarning loshlari.

Yo'lga chiqmang. Toptamang yo'lni!

\*\*\*

Bir ajib tush ko'rdim –  
Yo'l qadar uzun,  
Tong qadar chitroyli,  
Umrdek shirin.  
Hammasi yolg'on-u,  
Lekin hammasi  
Yoqimli ilohiy buyuk kuy kabi.  
Ajib tun...  
Ko'k uzra osig'liq shamlar,  
Yer unutildi.  
Bir labza ruhimni tark etdi g'amalar.  
Kiprik qoqlimasin.  
Rabbim,  
Uyg'otma!  
Tomirim yorilsin –  
Sinsin qadaqlar.  
O'zlikni unutilib,  
Cho'kib g'aflatga  
Uyg'ona olmaslar naqadar baxtli.

Na sas keldi,  
Na-da bir sado.  
Dunyo uzra bong uredi jumlilik.  
Bosh ushlagan og'ochsiz har dor  
Kimligiga aylanar kimning.  
Shaxs qaytadi, o'lik tafovut  
Tiriklikka qilar qaytariq.  
Fikr yorug'lukdeq qarodir,  
Yoshlik qarilikdan ham qari.  
Na sas keldi,  
Na boshlandi jang.  
Bir qafasda yuz minglab lashkar...  
Axir, vaqtning qulog'i garang –  
Qulog'i buralgan uxlashga.  
Borlik borliq uzra hayqirdi,  
Iz izlagan manzilga yetdi.  
Biz ham uxlayotgan aqlning  
Uyqusida uyquga ketdik.

\*\*\*

Sira egilmadi bu g'urur,  
Qil ustida turganda umrim.  
Axir, qachon tog'lar egilgan?!

\*\*\*

Qo'rqinch. Sado kelar: "Alvido!"—  
Marosimning so'nggi shovqini.  
Yelkamga yuk tashlar so'nggi bor  
Taqdir sochim silab, og'rinib.

Yellar o'tdi, tumanlar o'tdi,  
Ishq qiyynadi, jon arosatda.  
Stol uzra sham yonib bitti,  
Yondirildi suratlar, xatlar.

Sho'x soyularning ko'zgularida  
Soch taragan parvonalikdan  
Yaxshiroqdir tuyg'ularini  
Cherta bilgan beun o'lliklar.

Sababi yo'q hozir zamonda  
Haq so'zining qirilishini.  
Men istayman haqiqatni va  
Murdalarning tiriiliishi.

Qor ko'ksimga sanchilar, takror  
Tun quyuni boshlanar. To'zim?  
Sen o'zingni ko'rma sababkor,  
Ayriliqqa sababkor o'zim.

Zulm(at) davri keldi, azizam,  
Ruhlar dahshat ila qo'zg'alar.  
Sen sevmassan, men sevilmasman,  
Sevilmoqqa haqli o'zgalar.

\*\*\*

O't bo'lib yonmaydi ikki kaftimiz,  
 Siz menga qadrdon, men sizga g'anim.  
 So'z demay boqdingiz burib aftingiz,  
 Ijozat so'radmin salomlashgani.

Boshlarda shamoldek aylanar zamon –  
 Men sizga qadrdon, siz menga g'anim.  
 Kun kelib takroran berarman salom,  
 Ijozat so'raysiz xayrlashgani.

\*\*\*

Kel.  
 Bora olmayman sen tomon.  
 Tovonimni tilar tashnalik.  
 Yer – aylana.

Shams – ko'kda somon.

O'lim – g'arib...  
 Tiriklik – g'arib...

Kel.

Kelmoqni aylaglil maqsad.

Aylagilkli nigohlarni yor.

Sen menga atalgan bir xilqat.

Xilqatki,

Dalalarda kuylaguvchi shamoldek daydi,  
 Sochlarimni sarg'aytirgan quyoshdekk issiq.

Bu tush.

Sensizlik –

Aldangan arosatli tush.

Men –

Kezguvchi seni axtarib –

Olis ufqni sevadigan qush.

\*\*\*  
 Oy, yana ikkимиз yolg'iz.  
 Sen va men...  
 Sen va men...  
 Sen va men...  
 Sen va mendan iborat uzun –  
 Uzoq tun!

\*\*\*

Bag'rim tilkalangan, ey sho'rlik bag'rim,  
Qaydadir kutmoqda seni chaqinlar.  
Yo'llarda tuzoqlar, dushmanlar sang'ir,  
Begonalar yaqin, uzoq yaqinlar.

Bultilar ortida pardalangan sir,  
Yoril, tilagingni tinglaydi ular.  
Uloqtir, dardingni oyga uloqtir,  
Dard - daraxt i洛hiy o'sar sari sar.

Boshimga yulduzlar yog'dirar tashvish,  
Marvarid zanjirlar bo'g'ar bo'g'zimni.  
Ma'yus ko'zlarimga cho'kib keldi ishq.  
  
Bag'rim, ishq attadim o'zim o'zimni.  
Qonli tikanlarga qayragancha tish,  
Baxtsiz yuraklarga ko'mdim so'zimni.

\*\*\*

Ketsam,  
Yig'lamaydi tog'-u tosh,  
Xun tutmaydi yulduz shafaqqa.  
Ketsam,

Mensiz otmaydi quyosh,  
Hayot to'xtab qolar.

Faqatki,  
Tashlanilgan -  
Ozod - egasiz -  
Qanotlari kesik qushdayin  
Ketsam,  
Ketar menga ergashib  
O'tayotgan o'ilim istagi.

Ketsam...

\* \* \*

*(G'azal havasida)*

G'o'zal mayin labingdan bol  
tomib tursa, tutib olsam,  
Ta'mi Kavsar, sharob deb yo  
ikkilanmay yutib olsam.

Nazar etsang qarog'ingga  
to'lib ikki olam aksi  
Ikki olam ko'prigidin –  
kiprigingdan o'tib olsam.

To'kilsa sochlaring sharros  
bellaringning sohiliga,  
Bellaringning sohilidin  
quchib ikki qutb olsam.

KABISA

Iloman qaynayotgan qorlar ichinda,  
O'ylarim tabiat siriga payvand.  
Suyanib yashadim senga, kuchingga,  
Ko'ksimning o'rari sening bilan band.

O'chimi o'chirdim o'chisiz o'chingdan,  
Muzlagan nolalar lab tegmagan qand.  
O'zligim izmingda qonib yechingan,  
Surq ayan tishlarga berra sira pand.

Turli mayranglarga solmish to'rsiz til,  
Ion – tungi qusharday tusiangan xilqat.  
Yeylangan tomirda allalar aytil,  
Kezlanib, tezlanib oqib borar dill.

Meni uzoqlarga otgan Haqiqat,  
Haribir kelarman men senga qaytib.

Tumi yaldo etib kelsang  
bir telbaning hujrasig'a,  
To'lın oydekk yuzlaringni  
hilol birlan kutib olsam.

\*\*\*

"Avtobus derazasidan qarab ketsang"<sup>1</sup>,  
Unutsang, dunyoni butkul unutsang.  
Termulsang, sochingmi yel yuvsal alqab,  
O'ylasang faqatki hech narsa haqda.

\*\*\*

"Avtobus  
derazasidan  
qarab  
ketsang..."

Ko'zlarining yoshlansa quyosh nuridan,  
Odamlar taftiga to'lsa o'rindiq.  
Atrofga termulsang beg'araz, hushyor,  
Nigohing qa'riga ko'milsa dunyo.

Quvmasang yo'llarni qilib ovoza,  
Ochilsa betashvish yurtli darvoza.  
Olis-olislarga qo'nsa xatarlar,  
Bag'ringda yayrasa ozodparast qalb.

Sezsang-da, oh, o'zni sezsang bir erkin,  
Fikrating matnini buzmasa hech kim.  
Boshlasang o'zingga xayolot tiklab,  
Ildizdor dardididan yonsa etiklar.

Yelkangga tashlansa osmonlar yuki,  
She'r yozsang shamolning kitobin o'qib.  
Yetsang-da, sukunat qa'riga yetsang,  
Bir lanza o'zingni shoh faraz etsang.

---

<sup>1</sup> Rauf Parfi misrasi.

\*\*\*

Oshnam, kel, suyanchiq suyagil...  
 Bilasan-a...  
 Bilasan...  
 Kelmaydi kimgadir suyangim.  
 Bu tog'dir -  
 Asrkim poyida  
 O'sayotgan maysamiz, asli.  
 Bilmadim,  
 Turdimi dunyo joyida,  
 Yonishsiz kuyymadim,  
 Dunyo qay dunyoning qaysi bir nasli?!  
 Yonganlar uzoq.  
 Bormoqqa qadam yo'q,  
 Tuproq narida.  
 Bosarim tuzoqdir,  
 Borarim tuzoq.  
 Kimlar Xiyonatli baxt safarida?  
 Samar yo'q,  
 Benaflik oqar tomirda,  
 Aytarga so'z yo'qdir tillarimizda.  
 Biz kim? -  
 Ona yer tuprog'i qorilgan,  
 Qorishma Boshining qullarimiz-da.  
 Kelarkan savollar,  
 Bosh chanog'ining

O'q'ig'i ko'simdan yiqligan...  
 ...pastda,  
 O'simoi aldadom,  
 Kuning orsi...  
 Qayyohing yuragi -  
 Ohvalar kasta.  
 Yetar,  
 Gip keljonda tuchimadi til,  
 Ayunki hor gapni aymoqqa...  
 Niye kimni so'indik,  
 Kimbor aurod,  
 O'llin yo'q o'linga turik qaymoqqa.  
 Maydi da...  
 Ien = qashishoq -  
 hayot amoddor,  
 kela qol,  
 suyanchiq suyagli, oshna.  
 Hordik jan ont urgan Sarbast qamalda  
 hayanthi yahayman bugundan boshlab.

\*\*\*

*Otil Hotamga*

Har ne kelar, quyilar o'yga,  
Dunyo – to'zim bilmagan quyun.  
O'tmishimni, ertamni o'ylab,  
O'zligimdan ayirar o'yim.

Dunyoyimdan dunyolar o'tdi,  
Sochlari oq, lablari quruq.  
Kinder meni butkul unuttdi,  
Men hech kimni unutganim yo'q.

\*\*\*

Avaloib o'qonl,  
Ketma!  
Qanchalar yaxshisan yonimda.  
Qanchalar oson ketmak...

Har ne kelar, boshisiz kafanlar,  
Bodqanlig tutib olgudek pastdir,

Asir, kimdie sahor-azonlab  
Tehratadi moviy qafani.

Qandit yozar odamlar – tushday –  
Hili olam hildi kurakda,  
Uchomoq uchun yuktakda qushday,  
Lindi faqat osmon kerakdir.

\*\*\*

Avvaloib o'qonl,  
Ketma!  
Qanchalar yaxshisan yonimda.  
Qanchalar oson ketmak...

Avaloib o'qonl,  
Ketma!  
Qanchalar yaxshisan yonimda.  
Qanchalar oson ketmak...

Yaqinligim ko'zlar,  
Paradalangan olam ko'zlar,  
Yashliklida hech urillar  
Ur nadomuning ayqon so'zlar!  
Ur qognini yo'qotgan so'zlar!

\* \* \*

Osmon boshimizza moviy alanga,  
Yorug'lik doimo g'olibdir jangda,  
Borliq – arosatda tik qotgan tanga,  
Illohiy baxt kabi tuyular, jonim,  
Achchiq yoshlariimi to'ksam yarangga.

Tilsizmiz, so'zlovga so'zimiz qo'ldir,  
Ko'zimiz manzili falakka yo'ldir,  
Men senga to'layin, sen meni to'ldir,  
Sassiz labimizdan sas chiqsa, jonim,  
O'ldir o'zingni ham, meni ham o'ldir.

Men bu kun xiyonat, sen bu kun yorsan,  
Men bu kun diyonat, sen bu kun orsan,  
Men bu kun qiyomat, sen bu kun dorsan,  
Umr ayroliqsiz o'tarmiz, jonim,  
Bag'ringga o'q kabi suqlilib borsam.

Borchat voludilar harovatga zor,  
Kotraldar tuyali mosatto azon,  
Yirqiq shamihibi – dahabatl jazo,  
Ruhimiz koch suri horadir, jonim,  
Hijihat nishon – moqaddas azob...

\*\*\* \* \*\*\*

\*\*\*

1. O'tgan yillar aro ikkimiz... Balki,  
Hali yuraklarda so'nmagandir cho'g'.  
O'playman o'tmishning ko'zgusin artib,  
Qayta sevilish bor, qayta sevish yo'q.

Sochimga qo'ndi oq, yuzimda ajin,  
Sen ham qarigansan, ko'r ganlar aytdi.  
Bu kun ko'kka boqib, semi esladim,  
Bu kun yoshligimga so'nggi bor qaytdim.

2. Qaysidir bekatda avtobus poylab,  
Shamoldan junjikib, puflab qo'lingga,  
Ko'zlar to'qnashadi, tanish ikki qalb,  
Bilmadim, negadir sovuq ko'rinding.

Azaliy hayottday salom va alik,  
Ikki jon ichinda ikki yot qabr.  
Avtobus qo'zg'aldi, xayrashmadik  
Avval ko'rishmagan begona kabi.

Инти миннадиа quanday sir-asror,  
Девордан бедилди, бу урсиз қыяга?  
Миннади, буюда бе та ашунча зор,  
Кемиғи юриғи ли - қыюшда не айб?!

Бонг бишнанда туштанс бечарза,  
Би били олади о'з ўзин оқиаб.  
Үннан - хамма тиқ буған махалда  
Үнгің мана қояшша түшкәт буғсан.

\*\*\*

\*\*\*

Ildizini kovlang daraxtning.

Butalamang,

Qo'l tekkizmang va

Quloq ilgancha turing

Yaproqlarning shovqinlariga.

U go'zal daraxtdir.

Balki,

Tushuna olmayman,

Mevalari totli va shirin.

Nega daraxtning

Ildizi quyoshdan yashirin?!

To hayot bor ekan, ko'kka bo'ylagay.

Tegmang,

U o'zini tortadi baxtdan...

Nega bunday, axir?

O'ylamay

Ildizini kovlang daraxtning.

Ufqning og'zidan qizillik tomor...

Vujudi o'ladi qora sharpaning.

Bulutlar - kesilgan tomirim qonar,

Quyosh yonayotgan boshimdir maning.

Men yonib borarman, so'nmasman bu kun,

Osmon o'chog'ida porlarmen to'llib,

Bo'g'zimga dor ilib kelarsan nechun,

Begona insonga atalgan o'lim,

Yo'llaring adashgan, yo'llarim boshqa,

Manzilga yeturmiz yarim-yarimlab,

Bir osmon zor ekan bir yongan boshiga,

Uzib otajakman yelkalarimdan,

Boshsiz o'lim yo'qdir ikkinchi bora;

Tog'lar ko'kragida oyog'im tolsa,

Kimning olovida qoladi, yo Rab,

Osmon bir soniya yonishsiz qolsam.

Ko'zimga berkilgan yosh erur ul, yo,  
Javobgar Javobgar javobidir tub.  
Bir lahma yorishib oladi dunyo  
Qulab borayotgan boshimni tutib.

## MUNDARIJA

Vafo Fayzulloh. Yo'l juda uzun.....3

"Kiravering, deraza ochiq..."	6
"Rasm soling..."	7
"Ketar ekan oftob narilab..."	7
"O, naqdar maftun etar o'ziga..."	8
"Sobit tog'lar sadosi... Aks-sado..."	8
"Siniq derazadan boqadi olam..."	9
"Kunlarim, beshafqat kunlarim..."	10
"Tinglanar shaharning sokin alboni..."	11
"Yomg'ir yog'ar, malla sochim bo'l..."	11
"Olis-olista ga boqqanda odam..."	12
Manfred.....	13
"Janub sari uchar turnalar..."	14
"Boshlanar sukunat sadosi..."	15
Tushunchcha.....	16
"Tuman og'ushida nam olar tuproq..."	18
"Sharpalarning qadamlarida..."	18
"Yuraginginga boqdim ko'zingdan..."	19
"Trubka. Qo'ng'iroq, jarangdor tovush..."	20
"O'zingni qiynama suratim quchib..."	21
"Quyoshni izladim..."	22
"Yo'iga chiqmang. Yo'llar qorong'u..."	23
"Bir ajib tush ko'drim..."	24
"Na sas keldi, na-da bir sado..."	25
"Sira egilmadi bu g'urur..."	26
"Sho'x soylarning ko'zgularida..."	26
"Qo'rinch. Sado keilar: "Alvido!""	27
"O't bo'lib yonmaydi ikki kaftiniz..."	28
"Oy, yana ikkimiz yolg'iz..."	28
"Kel..."	29

"Hog'ini tilmalangan, ey sho'lik bag'rim..."	30
"Kishan..."	31
"Qo'shaq mayni labingidan bol..."	32
"Borona qayroyog'ligan qoldar Ichunda..."	33
"A'zoma, berastashan qarab ketsang..."	34
"Bu hafta menim yorishlar..."	35
"Nishonim, em amon boq soyapil..."	36
"Uta ni bolat qutlar o'vgi..."	38
"Belal..."	38
"Sobill kishin hujjatu lat'iyor..."	39
"Yolim, qurib..."	39
"Qurmon qurmonda shivoy shaxqa..."	40
"Qo'shaq pilan qo'shaq..."	42
"Kishan qurman uhal' boladidi..."	43
"Kishan kishin shaxning..."	44
"Uking mi kishin qellik tumay..."	45